TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **48,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 33,6 birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- mart oylarida **3643** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,1 foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1394** ta, sanoatda **421** ta, qurilish **307** ta, yashash va ovqatlanishda **245** ta, axborot va aloqada **227** ta, tashish va saqlash **149** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Sanoat | 32,5 |
| Qurilish | 67,9 |
| Investitsiya | 52,6 |
| Savdo | 56,3 |
| Xizmatlar | 37,3 |
| Eksport | 17,4 |
| Import | 49,6 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 96750 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 3643 |

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da







Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Chilonzor tumani – 12,8%, Yunusobod tumani – 11,7%, Mirzo-Ulug’bek tumani – 10,9%, Olmazor tumani – 9,5%, Shayxontohur tumani – 9,3%, Yashnobod tumani – 9,2% Uchtepa tumani – 8,7%, hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda




Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

**Savdoda**
1394 ta

**Sanoatda**
421 ta

**Qurilishda**
307 ta

**Yashash va ovqatlanishda**
245 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 33,6 birlikni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko‘ra*




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yakkasaroy tumanida 67,8 birlik, Mirobod tumanida 53,1 birlik, Bektemir tumanida 46,8 birlik, Chilonzor tumanida 46,3 birlik, Sergeli tumanida 33,8 birlikni tashkil etgan.

2022– yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Yakkasaroy tumani**
**- 67,8 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Chilonzor tumani**
**- 46,3 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Yangi hayot tumani**
**- 13,5 birlik.**

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yakkasaroy tumanida 67,8 birlik, Mirobod tumanida 53,1 birlik, Bektemir tumanida 46,8 birlik, Chilonzor tumanida 46,8 birlik, Sergeli tumanida 46,3 birlikni tashkil qilgan.

**2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




* *Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi






**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **48,5** % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-martida **51,6** %).

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 155,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 17,4 % ini tashkil etdi.






Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

**2022- yilnig yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Chilonzor tumanida – 33,4 %, Uchtepa tumanida-65,6 %, Bektemir tumanida – 43,4 % Mirzo-Ulug’bek tumanida – 39,3 Yashnabod tumanlarida – 39,4 % va eng kam ko’rsatkich Mirobod tumanida – 6,1 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **1803,2** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **49,6** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangihayot tumanida – 78,1 %, Sergeli tumanida – 72,0 %, Olmazor tumanida – 53,1 %, Mirzo-Ulug'bek tumanida – 76,8 %, Yakkasaroy tumanida – 52,8 %. Eng past ko'rsatkich Yashnobod tumanida – 37,9 % ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 155,2** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (838,2 mlrd. so‘m), Chilonzor (755,0 mlrd. so‘m), Yashnobod (713,6 mlrd. so‘m), Sergeli (595,7 mlrd. so‘m) va Yakkasaroy (483,9 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Yangihayot tumanida (251,2 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **32,5** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (63,1%), Yunusobod tumani (48,5%), Sergeli tumani (52,9%), Chilonzor tumani (35,1%), Yangihayot tumanida (31,6%), Mirzo-Ulug'bek tumani (33,5%), Yakkasaroy tumani (40,1%), Uchtepa tumani (39,5%), Bektemir (31,7%) va Mirobod (25,8%) tumani tashkil etdi. kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7 879,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **56,3** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,7** % ga pasayganligi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (1142,3 mlrd. so'm), Yunusobod (1357,6 mlrd. so'm), Chilonzor (780,6 mlrd. so'm), Bektemir (833,0 mlrd. so'm), Shayxontohur (581,4 mlrd. so'm), Yakkasaroy (665,4 mlrd. so'm) va Yashnobod (445,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 557,8** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **67,9** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **97,8** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzo-Ulug'bek (740,7 mlrd. so‘m), Yashnobod (587,5 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (469,1 mlrd. so‘m), Yunusobod (648,3 mlrd. so‘m), Mirobod (500,2 mlrd. so‘m), Chilonzor (340,7 mlrd. so‘m) hamda Sergeli (198,7 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 445,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **37,3** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Mirzo-Ulug'bek tumani (910,5 mlrd. so'm) Yunusobod tumani (787,1 mlrd. so'm), Chilonzor tumani (927,4 mlrd. so'm), Mirobod tumani (958,2 mlrd. so'm), Shayxontohur (935,1 mlrd. so'm), Yakkasaroy (966,8 mlrd. so'm) va Uchtepa (826,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



# 2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 53,8 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 105,8 % ni tashkil qildi.




Yuk aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 51,3 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,6 % ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi tashishda

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 78,6 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,4 % ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 81,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,8 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada 4012 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 1242 (31,0 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 2370 (59,0%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 400 (10,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofir-malarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 0,4 % (17 ta), sanoatda – 16,2 % (651 ta), qurilishda – 6,5 % (261 ta), savdoda – 36,2 % (1452 ta), xizmatlar sohasida – 40,7 % (1631 ta) ni tashkil etdi.

**2022- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Yunusobod 535 ta, Chilonzor 502 ta, Olmazor 454 ta, Yakkasaroy 413 ta, Mirzo-Ulug'bek 408 ta, Mirobod 291 ta tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning <u>joriy davrda</u> iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig <u>yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli</u> bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida, o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi sohasida 11,8 % ni, savdo 30,4 % ni, qurilish sohasida 27,6 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi sanoat sohasida 57,9 % ni, xizmatda 58,0 % ni, qurilishda 57,9 % ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligida 57,1 % ni, qurilish 49,7 % ni, sanoat sohasida 56,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdo sohasida 54,4 % ni, xizmatlarda 53,8 % ni, sanoatda 56,2 % ni tashkil etdi.